**SH A R T N O M A № 6**

**Andijon shahar** **« 06 » 01. 2022 yil**

«PROFARMA VODIY SAVDO» MChJ rahbari N.Xamidov keyinchalik matnda «Ta'minotchi» deb yuritiladi Nizom asosida harakat qiluvchi bir tomondan РШТЕСМ Анд обл bosh shifokori ДЖСохимов keyinchalik matnda Xaridor deb yuritiladi, ikkinchi ushbu shartnomani quydagi mazmunda tuzdilar:

## 1.Shartnoma mohiyati

1.1"Ta'minotchi" "Xaridor"ning talabnomasi bilan hayotiy zarur dez moddalarini sotadi. Xaridor esa olgan mahsulotlari uchun to'lovi Ta'minotchi"ning bankidagi tegishli hisob raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

| № | Mahsulot nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Narxi QQS siz | Yetkazib berish qiymati QQS siz | QQS stavkasi % | QQS summasi | Jami summasi QQS bilan |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | *ABK- Xloraktiv plyus 1,0 kg Barcha turdagi dezinfesiyalovchi vositalar* | dona | 36 | 69700 | 2509200 | 15 | 376380,00 | 2885580 |
| 2 | *Ekstra-Dez 0,5 litr (Konsentrat) Barcha turdagi dezinfesiyalovchi vositalar* | dona | 68 | 142560 | 9694080 | 15 | 1454112,00 | 11148192 |
| 3 | *Ekstradin 0,5 litr (Konsentrat) Barcha turdagi dezinfesiyalovchi vositalar* | dona | 69 | 105720 | 7294680 | 15 | 1094202,00 | 8388882 |
| 4 | *Septoderm 500 мл Barcha turdagi dezinfesiyalovchi vositalar* | dona | 135 | 26400 | 3564000 | 15 | 534600,00 | 4098600 |
| 5 | *DS -1 0,5 Litr (Konsentrat) Barcha turdagi dezinfesiyalovchi vositalar* | dona | 15 | 174080 | 2611200 | 15 | 391680,00 | 3002880 |
| 6 | | | | | | | | |
| X | Jami: | x | x | x | 25673160 | x | x | 29524134 |

1.2 Shartnomaning umumiy summasi **29 524 134 Yigirma to'qqiz million besh yuz yigirma to'rt ming bir yuz o'ttiz to'rt so'm** belgilangan.

## 2. Mahsulotning sifati

2.1 Yetkazib beriladigan «Tovar(mahsulot)»ning sifati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan yetkazib beriladigan tovar va moddiy qiymatliklar uchun belgilangan GOST standartlariga mos kelishi shart.

## 3. Hisob-kitob qilish tartibi

3.1 Hisob-kitob «Xaridor»ga tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.2 Shartnoma kuchga kirib, tegishli, G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tib, mablag' 5 bank ish kunidan «Xaridor» yetkazib beriladigon mahsulotlarning umumiy summasining 30% (foizi) oldindan (avans) tariqasida «Ta'minotchi» ning hisob raqamiga o'tkazib beradi. 3.3 «Xaridor» tomonidan 30% (foiz) oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng «Ta'minotchi» 3 bank ish kuni davomida mazkur shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va narxlarda Davlat standarti talablariga javob beradigan mahsulotlarni «Xaridor» ga yetkazib beradi.

3.4 Qolgan oxirgi 70% (foizi) ni «Ta'minotchi» tomonidan yetkazib berilgan mahsulotlar hisob varaq fakturalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

3.5 Mahsulotlarni yetkazib berish xarajati «Ta'minotchi» hisobidan qoplanadi.

**4. Jo'natish va qabul qilish shartlari**

4.1 Sotib olingan tovarlarni jo'natish «Ta'minotchi» tomonidan amalga oshiriladi, yetkazib berish sanasi bo'lib, tovarning «Ta'minotchi» omboridan yuborish sanasi xisoblanadi, tovarni qabul qilishda «Xaridor» tomonidan uni miqdori sifati va ro'yxati xisob-faktura asosida amalga oshiriladi.

**5. Tomonlarning majburiyatlari**

5.1. Tomonlar boshqa tomonining hujjatini rasmiylashtirilishi yoki noto'g'ri rasmiylashtirish uchun javobgar emasdirlar.

5.2. " Ta'minotchi" huquqlari va majburiyatlari:- berilgan buyurtamanomaga muvofiq yetkazib berilgan "Tovar (mahsulot) ni qabul qilishda asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

- agar "Tovar (mahsulotni)" yetkazib berish jarayonida "Ta'minotchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa "xaridor"ning talabi bilan aniqlangana barcha kamchiliklarni 3 kun muddatda bepul tuzatib berishga majburdir

5.3. "Xaridor" huquqlari va majburiyatlari.-kamchiliklarni bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar to'g'rilanish xarajatlarini qoplanishini talab qilishga :-mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplanishini "Ta'minotchi" dan talab qilish huquqiga ega.

**6. Tomonlarning mulkiy javobgarligi**

6.1. Shartnoma majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy –huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonuni talabalari doirasida mulkiy javobgardirlar

6.2. "Ta'minotchi " javobgarligi:-"Ta'minotchi" ning aybi bilan tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilsa "Ta'minotchi" tomonidan kechiktirilgan har bir kun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 % miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovar summasining 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

6.3. "Xaridor" ning javobgarligi:-" Xaridor" ning aybi bilan yetkazib berilgan tovarlar xaqqini o'z vaqtida to'lamasa, "Xaridor" tomonidan kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4% foiz miqdorida , ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.4. Shartnomaning 2- bandiga asosan "Ta'minotchi" tomonidan sotilgan mahsulot sifatsizligi tegishli hujjatlar bilan 3 kun ichida tasdiqlansa, u holda "Ta'minotchi" sifatsiz mahsulotni sifatli mahsulot bilan almashtirib beradi va bu bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

6.5. "Ta'minotchi" ning hisob varaqasida mahsulot solingan qutilar (tara) ni qaytarilishi qayd etilgan bo'lsa, qutilar 15 kun ichida qaytarilishi shart.

6.6. Tomonlar o'zlariga yuklatilgan majburiyatlardan o'zlariga bog'liq bo'lmagan quyidagi fors –major holatlarida qisman yoki to'liq ozod etiladilar: yong'in, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, blokadalar,import va eksport qilishga taqiqlar.

**7. Nizolarni hal etish**

7.1. Shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida o'zaro kelishilgan holda hal etiladi. Nizolar paydo bo'lganada tomonlar yozma ravishda ogohlantirish xati beradilar. Ogohlantirish xatiga javob berish muddati 10 kun.

7.2. Hal etilmagan nizolar Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi. Iqtisodiy sudini qarori hal etuvchi hujjat xisoblanadi.

**8. Fors-major**

8.1. Tomonlarga bog'liq bo'lmagan holatlar "Yong'in, suv toshqini shu kabi boshqa holatlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari", agar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda majburiyat bajarilmaganligi uchun tomonlar javobgarligidan ozod etiladi.

8.2. Yuqoridagi holatlar yuzasidan darhol xabarnoma yuborilishi majburiydir.

## 9. Shartnoma muddati

9.1. Shartnoma imzolangan kundan va tegishli hududiy g'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingandan kundan boshlab 31-dekabr 2022-yilgacha amal qiladi. Shartnomaga asosan tomonlarning o'z zimmamalariga olgan majburiyatlari bajarilmay qolsa, shartnoma majburiyatlar  bajarilguncha amal qiladi.

## 10.Umumiy holatlar

10.1. "Xaridor"  "Ta'minotchi" ga har oyning 5-sanasiga  shu oyda zarur bo'ladigan dez moddalarinining buyurtma ro'yxatini taqdim etadi. Bunda tovarning nomi, miqdori ko'rsatilishi shart. "Xaridor"ga  "Ta'minotchi" tomonidan  prays listlar taqdim etiladi.  Prayst listga asosan "Xaridor" narxlariga alohida e'tibor bergan holda, tanlov varaqasiga asoslanib bir oylik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan dez moddalarini sotib oladi.

10.2. Shartnomaga kiritilishi lozim bo'lgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma tartibda amalga oshiriladi va tomonlar  imzolar, muhirlagandan so'ng tegishli  g'aznachilik bo'imdan ro'yxatga olingandan keyin asosiy shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

10.3. Ushbu shartnomaga oid, lekin shartnomaga kiritilmasdan qolgan barcha holatlar O'zbekiston Repsublikisining amaldagi qonunlari asosida hal etiladi.

**Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari**

| "Ta'minotchi" | "Xaridor" |
|---|---|
| **«PROFARMA VODIY SAVDO» MCHJ** | РШТЁИМ АНДИЖОН ФИЛИАЛИ<br>Анд.ш. Пушкин к. 58. Тел/Факс 228-29-09<br>ИНН;200237030 ОКОНХ: 91511<br>Ш/ХВ: 10002186003401707310205400l<br>Узб. Респ. Молия Вазирлиги Газначилиги<br>Х/Р: 23402000300100001010 МФО:00014<br>МБББ ХККМ Тошкент шахар ИНН:201122919 |
| **Manzil: Andijon shahar Bobursho x ko'chasi 27-uy**<br>**Tel: +99895 204 66 55**<br><br>**h/r: 20208000404729968001**<br><br>**Bank nomi: «Hamkorbank» Amaliyot filiali**<br><br>**MFO: 00083   STIR: 300944201**<br><br>**Rahbar: __________ N.Xamidov** | **Manzil:** __________<br><br>**Tel:** __________<br><br>**h/r:** __________<br><br>**Bank nomi:** ______ **MFO:** ______ **STIR:** ______<br><br>**Rahbar:** __________ |